

ONAMASTIK MAKON VA UNDA ERGONIMIYANING TUTGAN O'RNI

Usmonova Umida

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola o'zbek tilshunosligida onomastika, onomastik makon tushunchalarining qo'llanishi va unda ergonimlarning tutgan o'rni hamda vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, onomastik makon, ergonim, ergonimiya, atoqli ot, adabiy til, adabiy nutq.

Аннотация. В статье рассматривается использование понятий ономастика и ономастическое пространство в узбекском языкознании, а также роль и функции эргонимов в нем.

Ключевые слова: ономастика, ономастическое пространство, эргоним, эргонимия, имя собственное, литературный язык, литературная речь.

Annotation. The article discusses the use of the concepts of onomastics and onomastic space in Uzbek linguistics, as well as the role and functions of ergonyms in it.

Key words: onomastics, onomastic space, ergonym, ergonymy, proper name, literary language, literary speech.

Har qanday tilning lug'aviy tizimidagi atoqli otlar o'ziga xos tizim yaratuvchi omillari, turli tarixiy davrlarda rivojlanish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari bilan alohida guruhni tashkil qiladi.

Onomastik makon - ma'lum bir davr tilida real, faraziy va fantastik narsalarni nomlash uchun qo'llaniladigan atoqli otlardir. Onomastik makon - nomlarning yadroviy va periferik darajalariga ega bo'lgan maydon tuzilishidir[6,46].

Shahar tili uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ularning asosiy qismi adabiy nutq - adabiy tilning kodifikatsiyalashgan variantlaridan biri, jonli so'zlashuv tili va nihoyat, turli obyektlar nomlarining keng qatlamini qamrab oladigan shahar onomastik makoni[3,50].

"Onomastik makon" atamasining o'zi birinchi marta V. N. Toporov tomonidan butun nomlar majmuasini ifodalash uchun qo'llanilgan. Olim turli davrlarda va turli mamlakatlarda har xil narsalar farqlanishi, individuallashtirilganligini ta'kidlab, onomastik makon doimo konkret ekanligini isbotladi. Darhaqiqat, onomastik makon ma'lum bir davrda, ma'lum bir xalqning g'oyalarida mavjud bo'lgan dunyo modeli bilan belgilanadi, lekin avvalgi davrlarning elementlari unda doimo saqlanib qoladi[10,37].

"Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da onomastik makon "ma'lum bir davrda ma'lum bir xalq tilida real, faraziy va fantastik narsalarni nomlash uchun qo'llaniladigan barcha sinflarning o'ziga xos nomlari majmuasi" deb tushuniladi va "onimik makon ko'plab onimik maydonlardan iborat (ma'lum bir turdagi onimlarni o'z ichiga oluvchi onimik makonning qismlari)", deb ko'rsatiladi[5,177].

Demak, barcha nomlar birgalikda onomastik makonni tashkil qiladi. Lekin bizni zamonaviy o'zbek tilining butun onomastik makoni qiziqitirmaydi, balki faqat shahar tilining ajralmas qismi sifatida shahar makoni obyektlariga tegishli onimlar, ya'ni ergonimlar va ularning onomastik makonda tutgan o'rni qiziqtiradi.

Shahar tilini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu ma'lum darajada doimiy ravishda o'sib borayotgan madaniyatlararo muloqot muhitida faol qo'llanilayotgan shahar obyektlari nomi - ergonimlarda o'z aksini topmoqda. Shahar tili "adekvat va tom ma'noda" aniq "shahar ijtimoiy hayotining o'zgaruvchan manzarasini aks ettiradi"[2,128]. Tadqiqotchilarning fikriga

ko'ra, shahar tili uchta tarkibiy qismdan iborat: adabiy nutq, jonli so'zlashuv nutqi va shaharning onomastik makoni[12,91].

So'nggi paytlarda shahar tilini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar uning ustun jihatlarini ajratib ko'rsatdi. Birinchi navbatda, tilshunoslar shahar og'zaki nutqiga adabiy til bilan bog'liqligi nuqtayi nazaridan qiziqishadi; shaharliklar nutqining o'ziga xos xususiyatlari o'rganiladi, shaharning o'ziga xos yozma kodi shakllanadi, so'zlashuv nutqining tarkibiy-semantik komponenti o'rganiladi; va nihoyat, shahar onomastik makonining nominatsiyalari (ko'chalar, xiyobonlar, bulvarlar, firmalar, restoranlar va boshqalar nomlari) o'rganiladi[11,86]. "Onomastik atamalar lug'ati"da nominatsiya quyidagicha ta'riflangan: "1. Nomlash funktsiyasi (nomlash, nominativ funktsiya); 2. Nom berish, nomlash, nomlash jarayoni"[4,91].

Onomastika "tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni o'rganadigan bo'limi"[4,97]. O.S. Axmonova o'zining "Lingvistik atamalar lug'ati"da onomastika atamasiga bir qancha ma'nolarni beradi: "1. Tilshunoslikning shaxs ismlarini o'rganadigan bo'limi (odamlar va hayvonlarning ismlari, otasining ismi, familiyasi, taxalluslari); 2. Tilshunoslik fanining maxsus predmeti sifatida shaxs otlarining jami (tizimi); 3. Tilshunoslikning o'ziga xos otlarni o'rganuvchi bo'limi"[1,277].

Onomastika atamasi, shuningdek, "barcha atoqli otlarning, ya'ni onimlar yig'indisi" sifatida ham ko'rib chiqiladi. Atoqli ot yoki onim deganda "o'zi nomlagan obyektни boshqa obyektlar orasida ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi so'z yoki so'z birikmasi: uni individuallashtirish va identifikatsiyalash" tushuniladi[4,95]. "Onomastika yoki ononimiya turli tipdagi nomlar majmui sifatida inson hayoti va faoliyatining barcha sohalari bilan bog'liq. Identifikatsiyalash yoki individuallashtirish uchun identifikatsiya zarur bo'lgan joyda, inson obyektни farqlashning eng qulay usuli sifatida atoqli otlardan foydalanadi"[9,324].

Shahar reliefi, landshafti va unga tutash hududlarning xususiyatlarini, shahar aholisining o'ziga xosligini va uning tarixini aks ettiruvchi nominatsiyalar majmui shahar onomastikasi yoki shahar onomastika makonini tashkil qiladi. N.V. Podolskaya onomastik makonni "ma'lum bir davrda ma'lum bir xalq tomonidan qo'llaniladigan barcha toifalarning atoqli otlari majmuasi" deb ta'riflaydi[4,147].

N.A. Prokurovskayaning fikricha, onimlar shahar onomastik makonining ajralmas qismi sifatida qaralib, muallif tomonidan "shahar obyektlarini ularning makon xususiyatlari, shakllarini hisobga olgan holda nomlaydigan mikrotoponimlar to'plami va tizimi"dir"[8,113]. "Shaharning lingvistik makoni - bu dunyoning yagona lingvistik manzarasi bilan birlashtirilgan, bir shahardagi turli til shaxslarining nutqiy asarlari (matnlari) yig'indisidan iborat bo'lgan til tizimining mavjudlik shaklidir"[7,41].

Xalqaro Onomastika fanlari qo'mitasi (ICOS) veb-saytining "Terminologiya" bo'limida *ergonim* tashkilot yoki tijorat tashkilotining nomi sifatida qo'llanilishi ko'rsatilgan. Biroq, saytda ingliz, nemis va fransuz tillarida taqdim etilgan asosiy terminlar ro'yxatida *ergonim* atamasi mahsulot yoki brend nomi sifatida berilgan. Shuningdek, uni yanada kengroq ma'noda, masalan, muassasalar, tashkilotlar va boshqalar nomi sifatida ishlatish mumkinligi ta'kidlangan[13].

Yuqorida keltirilgan fikrlar quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Onomastika atamasi, tilde mavjud bo'lgan barcha atoqli otlarning, ya'ni onimlar majmuasini anglatadi. Atoqli ot yoki onim deganda nomlangan obyektни boshqa obyektlar orasida ajratib ko'rsatadigan, ya'ni individuallashtirish va identifikatsiyalash funksiyasini bajaruvchi so'z yoki so'zlar birikmasidir.

2. Onomastik makon - ma'lum bir til doirasida xranologik jihatdan real, faraziy va fantastik narsa va hodisalarni nomlash uchun qo'llaniladigan atoqli otlardir. Onomastik makon - nomlarning yadroviy va periferik darajalariga ega bo'lgan maydon tuzilishini o'z ichiga oladi.

3. Ergonim atamasidan foydalanish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning ko'pchiligi "ergonim" atamasini shahar makoni obyektlariga nisbatan qo'llashadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ergonimlar nafaqat shaharda, balki pasyolka, qishloq va mahallalarda ham mavjud bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ergonimiya shaharning o'ziga xos belgi va xususiyati emas va "ergonim" tushunchasini talqin qilishda tilshunoslikda mustahkamlangan faqatgina "shahar onomastik makoniga" nisbatan tushunish unchalik to'g'ri emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов / О. С. Ахманова – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С.277.
2. Китайгородская М. В. Активные социолингвистические процессы в сфере городских наименований: Московские вывески / М. В. Китайгородская // Современный русский язык: социальная и функциональная дифференциация: Сб. ст.– М.: Языки славянской культуры, 2003. – С. 128.
3. Ларин Б. А. О лингвистическом изучении города // История русского языка и общее языкознание. – М., 1977. – С. 50.
4. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / отв. ред. А. В. Суперанская – М.: Наука, 1978. – С. 91.
5. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. 2-е изд. – М., 1988. – С. 177.
6. Подольская Н. В. Проблемы ономастического словообразования (К постановке вопроса) / Н. В. Подольская // Вопросы языкознания. – М., 1990. – № 3. – С. 46.
7. Позднякова Е. Ю. Языковое пространство города: Лингвокультурологическое описание народно-разговорной речи горожан / Е. Ю. Позднякова – Барнаул: Изд-во АлтГТУ, 2014. – С.41.
8. Прокуровская Н. А. Город в зеркале своего языка (на яз. материале г. Ижевска) / Н. А. Прокуровская – Ижевск: Изд-во Удмурт. ун-та, 1996. – С. 113.
9. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного / А. В. Суперанская – М. : Наука, 1973. – С. 324.
10. Топоров В. Н. О палийской топонимике // Ономастика Востока: исследования и материалы. – М., 1969. – С. 37.
11. Федотова Т. В. Репрезентация региональной идентичности в эргонимическом поле Кубани / Т. В. Федотова // Политическая лингвистика – 2016 – № 6 (60). – С. 85–90.
12. Яковлева Е. А. Ономастическое пространство как составная часть «языка города» и его основные единицы (на примере эргонимов г. Уфы / Е. А. Яковлева, А. М. Емельянова // Вестник Башкирского университета – 2006 – № 3. – С. 90–93.
13. ICOS. Vikipediya.